

MULOQOT JARAYONIDA NOVERBAL VOSITALARNING O'ZIGA XOSLIGI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
akademik litseyi ona tili va adabiyot fani katta
o'qituvchisi
Shamiyeva Laylo Norbuta qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada noverbal vositalarining qo'llanilishi va muloqot jarayonida qanchalik ta'sir ko'rsatishi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan. Noverbal vositalarning tasnifi va ularning mohiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Noverbal vositalar, verbal,nigoh, visual, nutq.

Kirish. Noverbal muloqot so'zlarga tayanmaydigan harakat va jestlardan iborat bo'lgan barcha shakllarni o'zida mujassam etgan til sifatida mashhur. Psixologlarning e'tirof etishicha, noverbal signallarni o'qish samarali muloqotning muhim shartidir. Nima uchun noverbal signallar muloqotda shunchalik muhim?

- 70% ga yaqin ma'lumotni inson ko'rish, kuzatish kanallari orqali (vizual) qabul qiladi;
- noverbal signallar suhbatdoshning haqiqiy hislari va fikrlarini tushunishni taqozo etadi;
- bizning suhbatdoshga munosabatimiz ko'pincha birinchi taassurot orqali shakllanadi. Bu, o'z navbatida, noverbal faktorlarning ta'siri natijasidir – yurish-turish, yuz tuzilishi, qarash, o'zni tutish, kiynish va h.k.

Ayniqsa, noverbal signallarning qiymati shundaki, ular so'zlardan farqli o'laroq o'z-o'zidan, samimiylar tarzda nutqqa chiqadi.

Ish yuzasidagi muzokaralarda noverbal signallar katta ahamiyatga egaligi eksperimental tadqiqotlarda tasdiqlanadi, ya'ni so'zlar (biz shunchalik katta ahamiyat beradigan) faqat 7 % ma'noni, 38 % tovush va intonatsiya ma'nosini va 55 % imoshoralar suhbat mazmunini ochib bera oladi.

Noverbal muloqot o'zida beshta tasnifni jam qilgan:

1. Makon tasnifi.
2. Nigoh.
3. O'zida quyidagilarni qamrab olgan optik-kinesik tasnif:
 - suhbatdoshning tashqi ko'rinishi;
 - mimika (yuz ifodasi);
 - pantomimika (imo-ishoralar)
4. Paralingvistik yoki nutqqa yaqin tasnif:
 - ovozning vokal sifati;
 - uning diapozoni;
 - toni;
 - tembri.

5. Ekstraliningistik yoki nutqdan tashqari tasnif:

- nutqning tempi;
- pauza;
- kulgu va h.k.[1].

Noverbal sohaga muloqotning aksional komponentlari kiradi. Aksional komponent nutqni kuzatuvchi kommunikantlarning harakatini namoyon etadi. Masalan, gapiroayotgan shaxsning iltimosiga javob qaytarishi uchun (aytaylik, chiroqni yoqish, gazetani olib berish va h.k.) adresat talab qilinayotgan harakatni amalgalashiradi. Shu tariqa kommunikatsiya jarayonida noverbal muloqot verbal muloqot bilan navbatma-navbat amalgalashishi mumkin.

Asosiy qism: O'z mohiyatiga ko'ra noverbal komponentlar boshqa semiotik sistemalarda (masalan, tasvir, madaniyatning namoyon bo'lishi, odob-axloq formulalarida va h.k.), shuningdek, predmetli yoki situativ bo'lishi mumkin. Buning ostida kommunikatsiya ishtirokchilari atrofidagi obyekt tushuniladi.

Verbal simvollar (so'zlar) bizning g'oyalarimizni kodlash uchun ishlataladigan asosiy vositamiz bo'lsa-da, biz noverbal simvollarni ma'lumotlarni translyatsiya qilish uchun ishlatalamiz. Noverbal kommunikatsiyada so'zdan tashqari istalgan simvolni qo'llashimiz mumkin. Ko'pincha noverbal muloqot bir vaqtida verbal muloqot bilan birga bo'lishi mumkin va bu so'zning ma'nosini kuchaytirishi yoki o'zgartirishi mumkin. Nigohlar orqali ishora, yuz ifodasi, masalan, tirjayish va norozilik, xayronlikdan qoshlarning ko'tarilishi, jonli yoki qotib qolgan nigoh, rozilik va norozilikni ifodalagan qarash - bularning barchasi noverbal kommunikatsiya. Qo'l barmoqlarining ko'rsatishni ifodalashi, og'zni qo'l bilan yopish (hayrat, qo'rqish, tasodifiy mumkin bo'limgan gapni aytib yuborganda, sirni oshkor qilib qo'yganda), bo'shashib turish, qo'llarni belga, boshga, orqaga, ko'krak ustiga qo'yib turish ham fikrni noverbal uzatishdir.

Antropolog Eduard T.Xollning[2] fikricha, inson biror narsaga qattiq qiziqsa, uning ko'z qorachiqlari kengayar ekan. Uning fikricha, bu ma'lumot arab dunyosida yuz yildan buyon bilishadi. Shuning uchun ba'zida qora ko'zoynak taqish o'ta qiziquvchilarga xosdir.

So'zlarni qanday talaffuz qilishimiz ham noverbal kommunikatsiyani shakkllantiradi. Intonatsiya va ohang, ovoz tembri, nutqning ravonligi va h.k. nazarda tutiladi. Tajribalardan ma'lumki, biz fikrimizni qanday bayon etishimizga qarab, gapning mazmuni ham keskin o'zgarishi mumkin.

Tajribalarga asoslanib, nutqiy ma'lumotning ma'lum qismi fikr almashinayotganda tilning holati, vaziyati va ovozning jarangdorligiga ko'ra qabul qilinadi. 55 % ma'lumot yuz ifodasi, imo-ishora orqali, 38 % esa intonatsiya orqali qabul qilinadi. Faqat 7 % i biz gaplashayotganimizda so'zlarni tashkil qilar ekan. Boshqacha aytganda, ko'p hollarda bizning qanday gapireshimiz talaffuz qilayotgan so'zlardan muhimroq. Boshqacha aytganda, ko'p hollarda bizning gapireshimiz aytmoqchi bo'lgan so'zimizdan muhimroqdir.

Aloqa-aratashuv jarayoni murakkab tabiatli bo'lib, inson ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazishda tabiiy holda turli vositalardan foydalanadi. Bu vositalarni, dastlab, ikkiga ajratish mumkin: lisoniy vositalar va nolisoniy vositalar.

Har qanday holda ham fikrni ifodalovchi vosita asosida belgilar qayd qilinadi. Insonning tabiiy tili ham muayyan belgilar sistemasidir. Obyektiv borliqdagi narsahodisa, belgi, harakat kabilarning o'z tabiiy xususiyatlaridan tashqari ularga kishilar tomonidan alohida nomlar ham berilgan. Ana shu shartli nomlar belgi hisoblanadi. Inson tili mana shunday ko'plab belgilardan tashkil topgan, fikr ifodalash va axborot uzatishdagi muhim lisoniy vositadir.

Tilni belgilar sistemasidan iborat deb tushunish, til birliklarini esa belgilar kombinatsiyasining hosilasi deb talqin etish nazariy tilshunoslikda keyingi yillarda keng tadqiq etila boshlandi. Jahon tilshunosligining yirik namoyondalaridan F. de Sossyur, Sh.Balli, A.Meye, E.Benvenist kabilar belgi nazariyasiga tayanib, til va nutq hodisalarini tadqiq qilishni boshlab berdilar.

Keyingi yillarda muloqot jarayonida ishtirok etuvchi nolisoniy vositalarni o'rghanish tilshunoslik sohasining diqqat markazida bormoqda.

Kishilik jamiyati tarkib topgandan buyon til bilan birga shakllangan va nutqni to'ldirib, kuzatib boruvchi nolisoniy vositalar turli nuqtai nazardan qator fanlarning o'rghanish obyekti bo'lib kelgan. Xususan, etnograflar nolisoniy vositalarni xalq, elat, millatning o'zligini ko'rsatuvchi urf-odatlar, adab shakllari, milliy ishoralar sifatida o'rgangan bo'lsalar, tarixchilar kishilar qo'llaydigan odatiy ishora yoki udumlarni xalq tarixi bilan bog'liq holda tadqiq etdilar.

Psixologlar uchun nolisoniy vositalar aloqa-aratashuv jarayoni deb qaraladi va dialogik nutq ishtirokchilari muomalasida ishlatuvchi nolisoniy vosita so'zlashuvchilarning psixologik munosabatlari asosida tekshiriladi.

Nolisoniy vositalarning aloqa-aratashuv vositasi sifatida ishlatilishi, ularning insoniyat tomonidan qo'llanilishining sabablari haqida turlicha qarashlar mavjud[3].

Aloqa-aratashuvda ishtirok etuvchi mimika nutqni to'ldirib keluvchi boshqa vositalarni tabiiy-biologik hodisa deb qaraydigan olimlar "noverbal vositalar – kishilar o'rtasidagi aloqa-aratashuvning qadimiy shakli" deyishadi. Jumladan, qo'lning harakati tabiiy ravishda himoya vositasi sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik qo'lning ma'lum aloqa-aratashuv vazifasini bajarishga ham xizmat qildirilgan. Yoki ko'rsatkich barmoqning labga bosilishi "jim" ma'nosini bildiradi. Bu ishoraning etimologik asosi shu harakatdan hosil bo'lgan to'g'ri ma'noga tengdir, ya'ni barmoqning labga bosilishi natijasida lab harakatga kelmay qoladi. Shu kabi ko'z qismoq, lab burmoq, kabi harakatlar ham aloqa-aratashuv vositasi sifatida ishlatilganda, ularning hosila ma'nolari so'f tabiiy biologik harakatdan anglashilgan ma'noga tayanadi.

Nolisoniy vositalarlarning paydo bo'lish omillari, shuningdek, imo-ishoralar bilan ular orqali ifodalanayotgan ma'no-mazmun o'rtasida semantik bog'liqlik mavjudligi qayd etiladi. Jumladan, bosh barmoq ochiq holda yuqoriga qaratilib, boshqa barmoqlar bukilsa, zo'r, juda yaxshi, barakalla, a'lo darajada kabi ma'nolar ifodalanadi. Bunda:

a) bosh barmoq boshqa barmoqlarga nisbatan yo'g'on, kuchliligi;
b) bosh barmoq boshqa barmoqlarga nisbatan oldinda – birinchi bo'lib joylashganligi ishora bilan ifodalanayotgan tushuncha o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu bog'liqlik nolisoniy vositalarlarning lisoniy omillar asosida hosil bo'lganligini bildiradi[4].

Nolisoniy vositalarlarning hosil bo'lishini ma'lum ijtimoiy sharoit, madaniy an'analar asosida deb biluvchilar nolisoniy vositalar ma'lum jamiyat kishilar aloqa-aratashuvining mahsuli, shuning uchun ular barcha kishilar uchun erkin holda axborot uzatuvchi vosita bo'la olmaydi deb hisoblaydilar.

O'zbeklarda duo qilish ishorasi va undan anglashiladigan ma'no-mazmun boshqa bir xalq yoki elat uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, mo'g'ullarda yomon, inkor ma'nosi boshqa barmoqlarni bukkan holda sinchaloqni ochib ko'rsatish bilan ifodalanishi boshqa xalq vakillari uchun tushunarsiz bo'lishi tabiiy.

O'zbeklar tomonidan qo'llanadigan ishoraning qarama-qarshisi, zidi bo'lgan bu ishora ham amalga oshirilishi, ham anglatadigan ma'nosi jihatdan ziddiyatni tashkil qiladi.

Fikr ifodalashda ishlatiluvchi nolisoniy vositalarlarning kelib chiqishini ikki xil holatda o'rghanish mumkin: birinchi nolisoniy vositalarlarni tabiiy-biologik holat deb o'rghanish; ikkinchi nolisoniy vositalarlarni ijtimoiy hodisa deb o'rghanish. Chunki barcha kishilik jamiyati uchun umumiyligi bo'lgan biologik tarzdagagi imo-ishoralardan tashqari har bir xalqning, ijtimoiy guruhning muloqot jarayonidagina qo'llaniluvchi nolisoniy vositalar ham borki, ularda o'sha xalqning o'ziga xos turmush tarzi, mamlakatning siyosiy xususiyatlari, diniy urf-odatlari, an'analari asosida shakllangan.

Biologik tabiiy yo'sinda hosil bo'lgan nolisoniy vositalar ham aloqa-aratashuvda ishlatilgach, simvolik mazmun kashf etadi va muayyan jamiyat kishilarining muomala jarayonida alohida olingan individlar tomonidan ma'no ifodalab aloqa-aratashuvda ishtirok etadi.

Nolisoniy vositalar aloqa-aratashuvda so'zli nutq bilan birga va uning o'rnida qo'llanilar ekan, har bir tilda bu kabi vositalarni o'rghanish, ahamiyatini belgilash, tasnif etish zarur masalalardan biridir. Chunki til hodisalarining mohiyatini ochib berish jarayonida nolisoniy vositalarlarning o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. R. Bridstvilning[5] ta'kidlashicha, til boyligini so'zlar tashkil etsa, nutq boyligini nolisoniy vositalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shunga ko'ra aytish mumkinki, jonli muloqot jarayonidagi ikkilamchi til unsurlarini vazifaviy, kommunikativ, ijtimoiy hamda farqli va mushtarak xususiyatlarini tavsiflash, tadqiq qilish nutqning tabiatini mukammal tushunishga yordam beradi.

Nolisoniy vositalarlarning nominativ xususiyatlarini, ifoda mazmunini, tuzilishini hamda nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Nolisoniy vositalarlar muloqotda turli element va qismlardan tashkil topgan mukammal butunlik sifatida talqin etilishi lozim. Chunki ularning har birida ifodali yetkazish va tushuntirish ramziy timsollar uyg'unligi mavjud.

Professor A.P.Belikov[6] yuqoridagi holatlarni umumiy baholaydi, ya'ni so'zlovchi ishora, mimik va pantomimik harakatlar bilan o'z nutqini boshqarib boradi deb hisoblaydi. Bu boshqaruv nutqiy vaziyatni tahlil qilish uchun muhim omil sanaladi.

Kishilarning jonli muloqoti jarayonida turli tabiatli nolisoniy vositalar ishtirok etadi. Avvalo, so'zlashuvga xos bo'lgan turli imo-ishora va harakatlar lisoniy vositalar bilan birgalikda yoki faqat nolisoniy vositalarlarning o'zi yordamida aloqa-aratashuvni ta'minlaydi. Shunga ko'ra so'zlashuvga xos bo'lgan nolisoniy vositalarlarni ikki guruhga ajratgan holda o'rganish, tavsif etish mumkin:

1. Lisoniy vositalar bilan birgalikda qo'llanadigan nolisoniy vositalar.
2. Lisoniy vositalarsiz qo'llanadigan nolisoniy vositalar.

Jonli so'zlashuv jarayoniga xos bo'lgan mazkur nolisoniy vositalarning birinchi guruhiga qo'lning turli harakatlari, boshning harakati, ko'zning katta-katta ochilishi, ovozning darajasi, lab holatlari kabilarni ko'rsatish mumkin. Qo'lni paxsa qilish – ta'kid, asosiy vazifa ma'nosini, ko'zni katta-katta ochib gapirish - hayajon, qo'rquv ma'nolarini, ovozning past darajasi – ehtiyyotkorlik ma'nosini, boshni sarak-sarak qilib gapirish – afsus, achinish ma'nolarini ifodalaydi.

Ikkinchchi guruhga esa, barmoqni labga qo'yish, qo'lni siltash, burunni tortish, boshni irg'ash, qovoqni solish, qoshni chimirish, bosh barmoqni ko'rsatish kabilarni kiritish mumkin. Barmoqni labga qo'yish – jim bo'lish, qo'lni siltash – norozilik, burunni tortish – diqqatni bo'lish, qovoqni solish – xafa, nafrat, qoshni chimirish – ajablanish, hayrat ma'nolarini anglatadi.

Kinesika atamasi tor va keng ma'nolarda qo'llanishda bo'lib, asosan tana harakatlarini o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etiladi. Kinesika ham paralingvistika kabi nolisoniy semiotikaning o'rganish obyektlaridan biri sanaladi. Shuningdek, bu atama "tana harakatlari" degan ma'noda ham adabiyotlarda qo'llanilgan. Antropolog olim M.Moss kinesika tushunchasini tana texnikasi deb atab, uning yuzaga kelish qonun-qoidalarida belgi bildirmaydigan xatti-harakatlarni ham kinesika tarkibiga kiritadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, hozirga kelib mazkur atama ostida adabiyotlarda, xususan, ilmiy ishlarda tor ma'noda qo'llanishi ko'p uchraydi. Biroq tor ma'nodagi qo'llanishi, bu jest va harakatlarni o'rganuvchi fan sifatida e'tirof etilgan ma'noga ega bo'lishi bilan birga, avvalo, qo'l harakti va imo-ishoralarni ham anglatib turadi. Shu bilan birga, kinesikaning o'rganish obyektiga yuz (mimika), bosh, oyoq orqali amalga oshiriladigan, tana va tana a'zolari yordamida vujudga keladigan bir qator harakatlar ham kiritiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мосс М. Техника тела. -М., 1996.-С 213
2. Клюев Е.В. Речевая коммуникация. М.: ПРИОР, 1998.
3. Кнапп М.Л. Невербальные коммуникации. М.: ПРИОР. 2000

4. Nurmonov A., Shahobiddinova SH., Iskandarova SH., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.:Yangi asr avlodi, 2001.
5. Safarova R. Leksik-munosabat turlari. -T.: O'qituvchi,1996.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbanova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.O'quv qo'llanma.-T.: Fan va texnologiya, 2009. -416 b.